

QOBILIYAT VA UNING TASNIFI

*Soatova Rayxona Sadriddin qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
Pedagogika va san'at fakulteti
Pedagogika yo'nalishi talabasi
rayhonasoatova@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxslardagi qobiliyat, uning rivojlanish omillari, tasnifi va turlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: qobiliyat, individual xususiyatlari, shaxs, iste'dod, psixologiya.

Annotation: This article provides information about the ability of individuals, its development factors, classification and types.

Key words: ability, individual characteristics, personality, talent, psychology.

Аннотация: В данной статье представлена информация о способностях личности, факторах ее развития, классификации и видах.

Ключевые слова: способности, индивидуальные особенности, личность, талант, психология.

Shaxsning barcha individual xususiyatlari faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi. Qobiliyat va qiziqish-havas shaxsning asosiy individual xususiyatlaridir. Shu o'rinda savol tug'iladi: "Qobiliyat o'zi nima?".

Qobiliyat — insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. obiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi. Qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat ko'nikma, malakadan farq qiladi. Qobiliyat insonga berilgan in'om sifatida qaraladi. Aksariyat ilmiy mohirlik bilan qobiliyat aynanlashtiriladi. Qobiliyat inson tomonidan ko'nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo'lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Shuning uchun qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim.¹

Qobiliyat va u haqidagi umumiy tushunchalarni vujudga keltirish uchun, avvalo, ularga aloqador omillar, tarkiblar bo'yicha ba'zi ma'lumotlarni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir: qobiliyatlar shaxsning psixologik xususiyatlari ekanligi,

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qobiliyat>

mazkur xususiyatga bilim, ko'nikma va malakani orttirish bilan erishilishini bog'lash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bilamizki, ma'lum bir sohada qobiliyati sezilarli bo'lib ko'rindigan ba'zi kishilarni qobiliyatli kishi, masalan, qobiliyatli shoir, qobiliyatli musiqachi, qobiliyatli rassom va hokazolar deyishadi. Faoliyatning biror sohasida qobiliyatning paydo bo'lish darajasi kishining individual xususiyati bilan xarakterlanadi. Qobiliyatnng bu kabi xususiyatlari bolalarda ham ko'rindi. Maktab yoshidagi ba'zi o'quvchilar matematik sohada, boshqalari ijodkorligi, zehni o'tkirligi kabi xususiyatlari bilan boshqalardan ajralib turadi. Ba'zi kishilarning qobiliyati faqatgina bi sohada emas, balki bir nechta sohalarda namoyon bo'lishi mumkin. Bu kabi shaxslar har tomonlama qobiliyatli kishilardir.

Pedagogik faoliyatdagi muhim jihatlardan biri bu pedagogik qobiliyatdir. Pedagogik qobiliyat bu qobiliyat turlaridan biri bo'lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqlilagini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini aniqlab beradi. Pedagogik psixologiyada o'qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning tutgan o'rnini ilmiy izohlab berishga oid samarali tadqiqotlar olib borilgan. Pedagogik qobiliyat ham o'z navbatida bir qancha turlarga bo'linadi. Dunyo olimlari pedagogik qobiliyatni o'zlarining nazariyalariga asoslanib, turlicha guruhlarga ajratib chiqishgan. Masalan: F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatni quyidagi turlarga ajratishni taklif qilgan.

- ◆ Didaktik qobiliyatlar
- ◆ Akademik qobiliyatlar
- ◆ Pertseptiv qobiliyatlar
- ◆ Kommunikativ qobiliyatlar
- ◆ Tashkilotchilik qobiliyati
- ◆ Avtoritat qobiliyatlar
- ◆ Kommunikativ qobiliyatlar
- ◆ Pedagogik xayolot
- ◆ Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati²

Insonlardagi qobiliyatlar baravar rivojlanmaydi: tajriba va bilimlarning to'planishi me'yoriga ko'ra, bittasi – oldinroq, keyingilari – kechroq rivoj topadi. Insonlar mактабгача yoshda barchasidan avval, musiqiy, keyin tasviriy qobiliyatlar rivojlanadi. She'riyat, adabiyotga bo'lgan qiziqish, qobiliyat o'smirlik davrida jadal rivojlanadi, fanlarga, jumladan matematikaga bo'lgan qobiliyat erta rivojlanadi. Harakat usullarini shaxsan kashf etish, boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan yangi

² To'xtasinova Nafisa Imomovna. (2023). INSONLARDAGI QOBILYATLARNING PAYDO BO'LISHI VA XUSUSIYATLARI. Spanish international scientific online conference PROSPECTS AND MAIN TRANDS IN MODERN SCIENCE. 130-132-betlar.

harakat usullarni egallash faqatgina mehnat mahsuldorligini oshirib qolmay, qobiliyatlarning rivojlanishini tezlashtirishga yangicha imkoniyatlar yaratadi. Harakat va izlanishdan to‘xtash, o‘zidan mamnunlik, xotirjamlik qobiliyat rivojlanishini keskin tushirib yuborishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, qobiliyatlar bilim, ko‘nikma, malakalarda emas, balki ularni egallash dinamikasida ya’ni bilim, ko‘nikma, malakalarni qanday tez,, chuqur va oson egallanishida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, olimlar, xususan, rus olimi B.M.Teplov bu borada quyidagi fikrlarni keltirib o‘tgan: “Qobiliyatlar shaxsning individual psixologik xususiyati bo‘lib, unga bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni o‘zlashtirilishining to‘liqligi, tezligi, yengilligi, chuqurligi hamda turli faoliyatni o‘zlashtirish va uni muvafaqqiyatli bajarishga bog‘liqdir”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova. Umumiylar psixologiya. Darslik. T. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018-y.
2. A.K.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E.Usmanova, I.O.Xaydarov. Umumiylar psixologiya. 0 ‘quv qo‘llanma. - T.: «Barkamol fayz media», 2018. - 272 b.
3. To‘xtasinova Nafisa Imomovna. (2023). INSONLARDAGI QOBILYATLARNING PAYDO BO‘LISHI VA XUSUSIYATLARI. Spanish international scientific online conference PROSPECTS AND MAIN TRANDS IN MODERN SCIENCE. 130-132-betlar.
4. <https://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/120/html/103003/18.Mavzu.Qobiliyat.htm>
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qobiliyat>
6. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/psixologiya/qobiliyat-qobiliyat-haqida-tushuncha>